

ARKADIYA KONFRENSIYASI QARORLARI
(1941-YIL 24-DEKABR – 1942-YIL 14-YANVAR)

Rizaev Baxtiyor Nazarboevich-Buxoro davlat universiteti “Jahon tarixi” kafedrasi dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Qurbanov Maxmud Muhammatovich – Buxoro davlat universiteti tarix (yo’nalishlar va faoliyat turlari bo‘yicha) yo’nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ikkinchi jahor urushi yillarida alqaro munosabatlar hamda AQSH – Angliy hamkorlik yo‘nalishlariga qaratilgan muhim masalalar ochib berilgan. Xususan, Arkadiya konfrensiyasi qarorlari va birlashgan millatlar ittifoqi dekloratsiyalari mazmun mohiyati fundamental tarixiy adabiyotlar va hujjatlar tahlili orqali imiy asoslantiriladi.

Аннотация: В данной статье раскрываются важные вопросы, ориентированные на взаимоотношения и направления американо-британского сотрудничества в годы Второй мировой войны. В частности, содержание решений Аркадийской конференции и деклараций ООН будет обосновано путем анализа фундаментальной исторической литературы и документов.

Annotation: This article reveals important issues focused on the relationship and direction of US-British cooperation during the Second World War. In particular, the content of the decisions of the Arcadia Conference and UN declarations will be substantiated by analyzing the fundamental historical literature and documents.

Kalit so`zlar: reja, qaror, AQSH, front, urush, operatsiya, qurl-yarog‘.

Ключевые слова: план, решение, СИИА, фронт, война, операция, вооружение.

Key words: plan, decision, USA, front, war, operation, weapons.

KIRISH

Urushning dastlabki yillaridan taniqli siyosiy arboblari tomonidan urush taqdiri sovet-german frontidagi vaziyat o‘zgarishi bilan bog‘liqligi to‘g‘risida taxminlar yangray boshladi. Darhaqiqat, SSSR g‘alabasi antifashistik koalitsiyaning yanada mustahkamlanishini ta’minlashi mumkin edi. Germaniyaning SSSRga qarshi hujimi 1941 yil 22 iyun erta tongda boshlandi. Mazkur operatsiya “Blitskrieg-yashin tezigelagi urush” rejasi asosida olib borildi.

Masalan, 1941-yilning erta kuzida fashist armiyasi SSSR chegarasini kesib o’tib, 800-1200 km ichgariga kirishrga muvofaq bo‘ldilar. Barbarossa rejasida shu yilni

qishiga qadar Moskvani egallash nazarda tutilgandi. Fashitlar Germaniyasi sovet markaziy qo‘mondonligi asosiy kuchlarni Moskva mudofasiga safarbar etadi. Biz esa bir hamla bilan SSSR hududigi egallaymiz mazmunidagi reja asosida ish tutdi. 1941 yil sentyabr va noyabr oylardagi hujumlar natijasida Germaniya armiyasi shiddat bilan ildamlab Moskvadan 25-30 km uzoqlikdagi pozitsiyalarini mustahkam egallahsga muvofiq bo‘lishdi. Mazkur muvoffaqiyatlar g‘alaba sifatida baholanib hatto, Berlinda fashistlar g‘alabani nishonlashga kirishdilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O‘z navbatida SSSR bosh shtabi qo‘mondoni I.Stalin va marshall G.Jukovlar buyrug‘i bilan 5-dekabrda sovet qo‘shinlari Kalinin fronti bo‘ylab, 6-dekabrda esa tezkor guruh Janubiy-G’arbiy front bo‘ylab Yelsa okrugiga hujumga o’tdi. Kalinin va Yelsa bo‘ylab qo‘shni frontlar ham hujumni boshlashdi. Ko‘rilgan choralar tezda o‘z natijasini ko‘rsatdi ya’niy fashistlar qattiq mag‘lubiyatlar bilan chekinishga majbur qilindi¹³. Qo‘lga kiritilgan g‘alaba fashitlar Germaniyasining “Engilmas”ligi haqidagi afsonalarni chippakka chiqardi. Qolaversa, agressiv koalitsiya ichida o‘zar qarama-qarshiliklarni yuzaga kelishida muhim rol o‘ynagandi. Misol uchun, Yaponiya SSSRga hujum reejasini yana bir yilga ortga surishga majbur bo‘lgan bo‘lsa, aksincha London va Vashington sovet hukumatiga munosib ittifoqchi sifatida munosabatda bo‘lish kerakligini tushunib etadi. Jumladan, U.Cherchill tomonidan I.Stalinga yuborilgan xatda: “Sovet armiyasi german bosqinchilariga qarshi olib borayotgan kurashni ifodalashga so‘z ojiz. Ammo men sizga takroran bu g‘alabalaringiz sharafiga qutlov xatlarini yuborishdan o‘zimni tiya olmayman” – deb o‘z hurmatini ishor etgan.

O‘z navbatida 1942-yil I.Stalining U.Cherchillga yozgan javob xatida: “SSSR, Buyuk Britaniya va AQSH ittifoqi dushmani sindiradi va uning ustidan to’liq g‘alaba qozonadi, men bunga aslo shubha qilmayman¹⁴.” – deb ta’kidladi. AQSH prezidenti Ruzvelt 1942-yil 27-apreldagi chiqishida: “AQSH Buyuk SSSR qo‘shinining fashistlarga qarshi tezkor hujumini ijobiy qabul qilgandi. Xususan, sovet armiyasi Birlashgan Millatlar qo‘shinlariga qarganda dushman askarlari, samolyot va tanklariga katta talofat etkazmoqda” – deb iliq munosabat bildirdi.

1941-yil 22-dekabrdan – 1942-yil 14-yanvarga qadar Vashingtonda AQSH va Angliya davlat rahbarlari ishtirokida “Arkadiya” konferensiya bo‘lib o’tadi. Unda AQSH va Angliyaning urushda birgalikda jang olib borish strategiyasi ishlab chiqildi.

¹³ Г.К.Жуков. Воспоминания и размышления. М: Агентство печати Новости, 1985. С. 229-230.

¹⁴ Переписка Председателя Совета Министров СССР с президентами США и премьер-министрами Великобритании во время Великой Отечественной войны, 1941-1945 гг. Т. 1. Переписка с У.Черчиллем и К.Эттли (июль 1941 г. – ноябрь 1945г.) /М-во иностр. дел СССР. 2-е изд. – М.: Политиздат, 1989. – 464 с. С.49.

AQSH va Angliyaning Tinch okeani havzasidagi og‘ir vaziyatga qaramasdan davlat rahbarlari bu frontning ikkinchi darajali ekanligini yana bir bor e’tirof etgan holda, asosiy e’tiborni Yevropa fronti ya’ni sovet-german frontida ekanligiga urg‘u berishdilar. Konfrensiyada Buyuk Britaniya bosh vaziri U. Cherchill: “Germaniya barchamiz uchun eng katta xavf. Biz, Yaponiyani Tinch okeani havzasida band qilib turgan holda, asosiy dushman Germaniyani yakson etishimiz kerak” – deb taklif berdii. AQSH rahbari Ruzvelt: “O’zingizni bekorga unintirmang, bizga hammasi ayon. Biz Yaponiyani jangda mag’lubiyatga uchratishimiz, biroq Germniya bilan bo‘ladigan janglarda yengilishimiz mumkin. Lekin Germaniyani jangda yengib, Yaponiyadan mag’lubiyatga uchtrash aql bovar qilmas hodisa” – deb ta’kidlaydi.

NATIJALAR

Konfrensiyada Cherchill tomonidan memorandum Ruzveltga taqdim etadi. Unda sovet-german frontidagi mavjud holat hisobga olingan holda AQSH va Angliyaning keying harakatlari belgilab berilgan edi. Cherchill: “Ayni vaqtida frontda dolzarb masala bu – Gitler germaniyasini to‘xtashtishga qaratilgani” ta’kidlangandi. Bugungacha, Gitler qo’shini osson g’alabalarni qo’lga kiritib kelayotgan edi. Biroq, endi qahraton qish sovig‘i bilan buyuk sovet armiyasi kutmoqda. SSSR bilan janglarda gitler germaniyasi uchun katta miqdorida quol-yarog‘ va yoqilg‘i talab etladi.

Ikki o‘rtada kutilayotgan to‘qnashuvlarda Buyuk Britaniya va AQSH SSSR uchun va’da qilingan qurol-asлаha va harbiy texikalar etkazib berish majburiyatini belgilangan muddatda bajarishimiz lozim bo‘ladi. U.CHerchill: “Biz tomonimizdan ko‘rsatilgan yordam tufayli sovet qo’shlari mudofaasini mustakamlash va qarshi hujumga o‘tishini ta’minalash mumkin”...degan edi¹⁵.

Buyuk Britaniya bosh vaziri fikrlari AQSH hukumatini birgalikda SSSRga yordam bershga ko‘ndirishga qaratilgandi. Qolaversa konferetsiya ishtiokchilari diqqat markazida asosan sovet-german fronti bo‘lganini alohida ta’kidlash lozim. Konfrensiyada Buyuk Britaniya hukumi delegatsiyasi mamlakat manfatlari yuzasidan kelib chiqib harakat qilgani tarixiy adabiyotlarda o‘z aksini topgan. Jumladan, CHerchill hukumi AQSHni ikkinchi front ochilishini kechiktirishga chaqirgandi. YA’niy, ikkinchi frontni ochish, barcha kuchlarni bir nuqtaga yig‘ish uchun ko‘p vaqt talab etadi, aksincha sovet armiyasiga moliyaviy va harbiy yordam berilishi sovet-german frontidagi janglar davomiyligini ta’minalashi mumkinligi asoslantirildi. Bu borada inglizlar o‘z pozitsiyasini mustahkamlashni maqsad qilganini ilg‘ash mumkin.

¹⁵ История дипломатии. Т. 4. М., 1975. –С. 255-256-257.

MUHOKAMALAR

Tabiiy-ki, Ruzvelt ham Cherchilning yuqoridagi fikrini qo'llab-quvatlagan holdi SSSRga oid barcha dasturlar davlat manfaatlari uchun o'ta muhim ekanligini harbiy vaziri Stimsonga yana bir bor uqtigandi.

SHu boisdan 28-dekabr Ruzvelt SSSRga harbiy qurol-aslahalarni yetkazishni cheklash to'g'risida oldin ta'kidlagan qarorini nafaqat bekor qiladi balki, 1942-1943-yillarda sovet armiyasi uchun qurol-aslahalar miqdorini yetkazib berishni yanada kengaytirish to'g'risida yangi qaror qabul qilinadi.

SHu bilan birga, konferensiyada Cherchill tomonidan ilgar surilgan takliflar - Germaniyani blokadasini davom ettirish va aviatsiya yordamida fashistlar hududini bombardimon qilish hamda Fransuz Shimoliy Afrikasiga desant tashlash tg'risidagi qaror sifatida qabul qildi¹⁶. 1942-yil 11-fevralda I.Stalin Ruzveltdan maxfiy va shaxsan Stalinga bag'ishlangan maktub oladi. Unda: "YAanvar va fevral oylarida biz tomonimizdan 449 ta yengil tanklar, 408 ta o'rta tanklar, 244 ta qiruvchi, 24, B25, 233

A-20 samolyotlari yuborish rejorashtirildi. Men sizlar uchun bu texnikalarning qanchalik muhim ekanligini tushunaman va tez orada texnikalarni yetkazishga harakat qilaman – mazmunida xabar berildi¹⁷.

Konferensiya davomida Cherchill va Ruzvelt SSSR hukumati bilan muhokamadan so'ng "o'q" davlatlariga qarshi kurashuvchi davlatlarning dekloratsiyasi loyihasini tayyorlashadi. 1942-yil 1-yanvarda 26 ta davlat vakillari Vashingtonda Birlashgan Millatlar Deklaratsiyasini imzolashadi. 26 ta davlat o'z milliy xavfsizlikni himoya qilish, erkinlik, mustaqillik, diniy erkinlik va inson huquqlarini saqlab qolish va adolatni ta'minlash uchun dushmanlari ustidan to'liq g'alaba qozonishlari shart va bundan buyon yovvoyi hayvoniylar kuchlarga qarshi kurash bu davlatlarning asosiy vazifasi ekanligini ta'kidlandi. Birlashgan Millatlar Deklaratsiyasini imzolayotgan davlatlar o'z zimmasiga:

1) har bir davlat o'zida mavjud barcha resurslari, qo'shinlari, iqtisodiy kuchi bilan "Uchlar" ittifoqidagi va ularga kelib qo'shilgan davlatlarga qarshi kurashish; 2) ushbu dekloratsiyani imzolagan davlatlar o'zaro hamkorlikda ish yuritish va dushman davlatlar bilan separat yarashish yoki tinchlik shartnomasini imzolamaslik – kabi majburiyatlarni olishadi.

¹⁶ История дипломатии. Т. 4. М., 1975. С. 257-258.

¹⁷ Переписка Председателя Совета Министров СССР с президентами США и премьер-министрами Великобритании во время Великой Отечественной войны, 1941-1945 гг. Т. 2. Переписка с Ф. Рузвельтом и Г. Труменом (август 1941 г. – декабрь 1945 г.) /М-во иностр. дел СССР. 1-е изд. – М.: Политиздат, 1958. С.15.

Kelgusida Birlashgan Millatlar Deklaratsiyasiga dushman davlatlarga qarshi kurashishda moliyaviy yoki gitlerizmga qarshi harbiy kurashda yordam bermoqchi bo'lgan millatlar qo'shilishi mumkin¹⁸.

XULOSA

Bir so'z bilan aytganda arkadiya konferensiya qarorlari bir tomonidan qaraganda sovet armiyasi hujumkorligini oshirishga xizmat qildi. Boshqa tarafdan qaralsa sovet-german frontidagi urushlarni yana uzoq muddatga davom etishini ta'minladi. Konfrensiya qarorlari Evropa va AQSH hukumron doiralari o'zlarini qabih manfaatlari nuqtai nazaridan kelib chiqib ommaviy qirig'inlarga sabab bo'lgan jirkanch siyosiy o'yinlari maqsadi ko'rinish qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Perepiska Predsedatelya Soveta Ministrov SSSR s presidentami SSHA i premer-ministrami Velikobritanii vo vremya Velikoy Otechestvennoy voyny, 1941-1945 gg. T. 1. Perepiska s U.Cherchillem i K.Ettli (iyul 1941 g. – noyabr 1945g.) /M-vo inochtr. del SSSR. 2-e izd. – M.: Politizdat, 1989. – 464 s. S.49.
2. Perepiska Predsedatelya Soveta Ministrov SSSR s presidentami SSHA i premer-ministrami Velikobritanii vo vremya Velikoy Otechestvennoy voyny, 1941-1945 gg. T. 2. Perepiska s F. Ruzveltom i g.G. Trumenom (avgust 1941 g. – dekabr 1945g.) /M-vo inochtr. del SSSR. 1-e izd. – M.: Politizdat, 1958. –S.15.
3. Istoriya diplomati. T. 4. M., 1975. S. 255-256-257-258.
4. A.D.Bogaturov. Sistemnaya istoriya mejdunarodnykh otnosheniy. T. II.Dokumenty. M., 2000. S. 211.
5. G.K.Jukov. Vospominaniya i razmyishleniya. M: Agenstvo pechatи Novosti, 1985. S. 229-230.

¹⁸ А.Д.Богатуров. Системная история международных отношений. Т. II.Документы. М., 2000. С. 211.